

Milliy valyutada bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish shartnomasi

№ _____

sh.

04.04.2025yil.

Bundan buyon shartnoma matnida **“BANK”** deb yuritiluvchi **“O‘zsanoatqurilishbank”** ATB nomidan Nizom hamda Bosh ishonchnoma asosida ish yurituvchi **“O‘ZSANOATQURILISHBANK”** ATB BXM/BXO rahbari bir tomondan, hamda bundan buyon matnda **“MIJOZ”** deb yuritiluvchi _____ nomidan ustav asosida ish yurituvchi _____ ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma, Mijozning arizasiga ko‘ra amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini (keyingi o‘rinlarda “hisobvara”) ochish, uning hisobvarag‘iga kelib tushayotgan pul mablag‘larini qabul qilish va hisobga kiritish, mijozning hisobvarag‘idan tegishli pul mablag‘larini o‘tkazish hamda berish va hisobvara bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Mijozning bevosita bank hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa operatsiya va xizmatlar (jumladan: kreditlash, kafolat, lizing, depozit va b.) alohida shartnoma rasmiylashtirish orqali tartibga solinadi.

Bank va uning mijozlari o‘rtasidagi munosabatlar qonun hujjatlari talablariga muvofiq bank va mijoz o‘rtasida yozma shaklda tuzilgan bank hisobvarag‘i shartnomasi asosida tartibga solinadi. Shuningdek, bank va mijoz o‘rtasida kredit, valyuta, lizing, faktoring, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarining har biri bo‘yicha tuzilgan shartnomalar asosida bajariladi.

1.2. Bankning quyidagi keltirilgan xizmat turlari mijozning yozma roziligiga binoan, Bankning www.sqb.uz rasmiy veb saytida joylashtirilgan ommaviy oferta shartnomasini akseptlash orqali ko‘rsatiladi:

- Bank tomonidan tashkilot xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kirim qilish bo‘yicha bank kartalariga xizmat ko‘rsatish;
- To‘lov terminallari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish;
- Mijozlarga milliy va chet el valyutasidagi bank kartalaridan foydalanish;
- Bankning masofaviy xizmatlari, ya‘ni “Internet-banking”, “SMS-banking”, “Mobil banking” va “SQB Business”;

Markaziy bankning “QR-Online” avtomatlashtirilgan tizimi orqali to‘lovlarni amalga oshirish.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Bank mazkur shartnomaga asosan quyidagi majburiyatlarni oladi:

2.1.1. Bank mijozning topshirig‘iga binoan to‘lovlarni amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan shartlarga rioya qilgan holda, quyidagi tartiblarda amalga oshirish:

a) to‘lov hujjati bankning amaliyot kuni mobaynida tushgan bo‘lsa, shu kunning o‘zida. To‘lov hujjati amaliyot kuni tugaganidan keyin tushgan taqdirda, to‘lovni keyingi bank ish kunidan kechiktirmay;

b) to‘lov hujjatida valyutalash sanasi belgilangan bo‘lsa, valyutalash sanasida. Agar valyutalash sanasi dam olish kuniga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, benefitsiarning banki valyutalash sanasi deb belgilangan kundan keyingi birinchi ish kunida.

2.1.2. Bank Mijozning topshirig‘isiz uning hisobvarag‘idan pul mablag‘larini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda (akseptsiz to‘lov talabnomasi, inkasso

topshiriqnomasi va memorial order asosida) hamda mazkur shartnomada ko'zda tutilgan boshqa hollarda hisobdan chiqarish;

Mijozning hisobvarag'ida mablag' mavjud bo'lmagan yoki yetarli (shu jumladan bank xizmat haqi uchun) mablag' bo'lmagan taqdirda, Bank to'lov hujjatini ijrosiz qaytarish (soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha taqdim etiladigan to'lov hujjatlari bundan mustasno);

2.1.3. Pul hisob-kitob hujjatlari, shuningdek Bank hisobvarag'i shartnomasida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar bank tomonidan faqat mijozning bankka taqdim qilgan muhr va imzo qo'yilgan varaqchada ko'rsatilgan shaxslar yoki mijozning vakil qilingan shaxsidan ishonchnoma asosida qabul qilish;

2.1.4. To'lov hujjatlarini qabul qilishda Bank barcha zarur rekvizitlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib, xato va kamchiliklar aniqlanmagan to'lov hujjatlarini ijroga qabul qilish;

2.1.5. Mijozni kassa hujjatlari (naqd pul topshirish e'lonlari va boshqa zarur blankalar) bilan bepul ta'minlash;

2.1.6. Mijozning talabiga muvofiq, uning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga hisobvaraqdan ko'chirmalar va boshqa tegishli hujjatlarni berish;

2.1.7. Mijozga taaluqli bo'lgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni sir saqlanishini kafolatlaydi;

2.1.8. Mijoz hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'larini but saqlanishini ta'minlash;

2.1.9. Mijozning hisobvarag'ida mablag' yetarli bo'lganda yoki hisobvarag'da

2-sonli kartoteka mavjud bo'lib, ish haqini bron qilish bo'yicha arizasiga asosan mablag'lar yig'ilgan hollarda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni birinchi talabdayoq berilishini ta'minlash.

2.2. Mijozning majburiyatlari:

2.2.1. Bankka hisobvaraqlar ochish va hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish uchun amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan barcha hujjatlarni to'liq taqdim etish;

2.2.2. Bankda belgilangan ish vaqti, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning amaldagi me'yoriy hujjatlari talablariga rioya qilish;

2.2.3. Mijozning naqd pul tushumlarini bankka topshirish tartibi va muddatini hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun naqd pullarni bank kassasidan olish muddatini, shuningdek o'z kassasida kun oxirida qolishi mumkin bo'lgan naqd pul qoldig'iga limitni belgilash bo'yicha hisobvaraqlar ochilgan vaqtda keyingi oydan kechikmasdan hamda har yilning yanvar oyi mobaynida hisob-kitob ma'lumotnomasini ikki nusxada to'ldirgan holda bankka taqdim etish;

2.2.4. Hisobvaraqlar mablag' mavjud bo'lganda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya va nafaqalar olishning kalendar jadvaliga muvofiq pul chekini bankka taqdim etish kunidan bir kun oldin Bankni ogohlantirish;

2.2.5. To'lovlarni amalga oshirish uchun o'zining asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida yetarli pul mablag'lariga ega bo'lish;

2.2.6. Ko'rsatilgan bank xizmatlari bo'yicha to'lovlarni mazkur shartnomada belgilangan muddatda va tartibda hamda Bank Tariflarida belgilangan miqdorda to'lab borish;

2.2.7. Amaldagi qonun hujjatlariga asosan bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;

2.2.8. O'zining tashkiliy-huquqiy shaklida o'zgarish sodir bo'lganda, to'lov hujjatlariga imzo qo'yish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar o'zgarganda (yangi rahbar yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs) ushbu o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida Bankni xabardor qilib, tegishli hujjatlarni Bankka taqdim etish.

Yuridik manzilda o'zgarish sodir bo'lganda, bu haqidagi ma'lumotlarni 5 (besh) kun mobaynida Bankka taqdim qilish;

2.2.9. Deponentga o'tkazilgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya, nafaqa va moddiy yordam pullarini amaldagi normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan muddatda Bank kassasiga topshirish;

2.2.10. O'zining kassasiga naqd pul mablag'larini kirim qilish va sarflash tartibiga, shuningdek kassa intizomi va limitdan ortiqcha naqd pullarni belgilangan tartibda inkassatsiya xizmati orqali yoki mustaqil ravishda ushbu shartnomaning 1.2.-bandida qayd etilgan ommaviy oferta shartnomasida belgilangan shartlarga rioya etish;

2.2.11. Xato (noto'g'ri) kelib tushgan mablag'lar to'g'risida xabar topgan kunning ertasidan yoki hisobvaraqdan ko'chirma olgandan so'ng 2 (ikki) ish kuni mobaynida Bankka uni qaytarish to'g'risida to'lov topshiriqnomasini taqdim etish;

2.2.12. Doimiy ravishda (kamida haftada bir marta) o'zi yoki ishonchli (mas'ul xodimi) orqali Bankning rasmiy saytiga (www.sqb.uz) kirib, Bank Tariflariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tekshirib borish;

2.2.13. To'lov (POS va E-POS) terminallaridan faqat O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanish. Terminaldan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilgan taqdirda, yuzaga keladigan barcha huquqiy, moliyaviy va texnik javobgarlik to'liq mijoz zimmasida qoladi.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1. Bankning huquqlari:

3.1.1. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Markaziy bankining me'yoriy xujjatlari, Bank tomonidan o'rnatilgan tartib va qoidalar, shuningdek, hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z muddatida taqdim qilish bo'yicha yo'l qo'yilgan tartibbuzarlik holatlari mavjud bo'lganda, operatsiyani amalga oshirishni to'xtatib turish yoki qonunchilikka zid bo'lgan operatsiyalarni bajarishni rad etish;

3.1.2. Qonunchilikda belgilangan tartiblarga muvofiq, hisobvaraqdan mablag'larni so'zsiz ravishda hisobdan chiqarish bo'yicha inkasso topshiriqnomalari hamda akseptsiz to'lov talabnomalarini Mijozning roziligisiz hisobdan chiqarish;

3.1.3. Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'luvchi hujjatlarning haqiqiyligiga shubha tug'ilganda, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ularni imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarni xabar qilgan holda operatsiyalarni amalga oshirishni vaqtincha to'xtatib turish;

3.1.4. Mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida 2-sonli kartoteka mavjud bo'lgan taqdirda, uning ikkilamchi hisobvaraqlari, shuningdek, boshqa banklarda ochilgan (qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilmaydigan bank hisobvaraqlar bundan mustasno) hisobvaraqlardan mablag'larni Mijozning qarzi majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar asosiy

depozit hisobvaraqqa o'tkazish va ikkilamchi hisobvaraqlardagi operatsiyalarni to'xtatib qo'yish;

3.1.5. Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilganidan so'ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga keyingi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish yo'li bilan hisobvaraqlardan tegishli summalarni Mijozning roziligisiz hisobdan chiqarish;

3.1.6. Xato (noto'g'ri) o'tkazib yuborilgan mablag'larni, Mijozning roziligisiz memorial order yoki tegishli to'lov hujjati bilan hisobdan chiqarish orqali qaytarish;

3.1.7. Vakolatli organlarning taqdimnomasiga asosan valyuta hisobvaraqlaridagi mablag'larni qarzdorlikni qoplashga yetarli miqdorini Valyuta birjasi orqali sotishga chiqarish;

3.1.8. "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish;

3.1.9. Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar (kredit, kafillik, lizing, garov, faktoring, kafolat berish va h.k.) bo'yicha Mijozning Bank oldidagi muddati o'tgan qarzdorlik summasini Fuqarolik kodeksining 780 va 783-moddalariga asosan Mijoz topshirig'isiz (akseptsiz

ravishda) uning barcha hisobvaraqlaridan to'lov talabnomasi yoki memorial order orqali hisobdan chiqarish.

3.2. Mijozning huquqlari:

3.2.1. O'zining hisobvarag'idagi pul mablag'larini qonunchilikda belgilangan tartibda erkin tasarruf etish;

3.2.2. Hisob-kitob va kassa xizmatlari bo'yicha Bankka topshiriqlar berish, inkasso bo'yicha so'rovnomalar berish, hisobvaraqa xizmat ko'rsatish bilan bog'liq topshiriqlarni o'z vaqtida bajarilishini talab qilish;

3.2.3. Asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida yetarli mablag'lar mavjud bo'lganda yohud ish haqini bron qilish arizasiga asosan mablag'lar yig'ilganda ish haqini to'lash jadvaliga muvofiq naqd pul mablag'larini olish;

3.2.4. Bank hisobvarag'idan o'tkazilib, tegishli hisobvaraqa tushmagan pul mablag'larini, qidirish va qaytarishda yordam so'rash;

3.2.5. O'zbekiston Respublikasining bank sohasiga oid bo'lgan qonun hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlari bo'yicha axborotlar olish;

3.2.6. To'lov amalga oshirilgandan so'ng, keyingi bank ish kunida hisobvaraqa bo'yicha ko'chirmalar olish;

3.2.7. Hisob-kitoblar va bank xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, e'tirozlarini Bank rahbariyatiga yozma taqdim etish.

4. BANK SIRI

4.1. Mijozga xizmat ko'rsatish jarayonida ma'lum bo'lgan hamda kelajakda ma'lum bo'ladigan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq sir saqlanadi.

4.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat Mijozning yozma ravishdagi murojaatiga asosan uning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga berilishi mumkin.

4.3. Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlari uchinchi shaxslarga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar mavjud bo'lganda o'rnatilgan tartibda taqdim etiladi.

5. BANK XIZMATLARI UCHUN TO'LOVLARNING MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI

5.1. Mijoz bank hisobvarag'lariga ko'rsatilgan xizmatlarga Fuqarolik kodeksining 780-moddasiga asosan quyidagi tartibda haq to'laydi:

- Mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 1-ilovaga muvofiq;

- 1-ilovada belgilanmagan Bankning boshqa amaliyot turlari (xizmatlari) uchun Bank tariflarida belgilangan miqdorda.

5.2. Bank tariflari bilan tasdiqlangan "maxsus paketlar" harid qilingan hollarda, ushbu paketlar unda belgilangan muddatga amal qiladi hamda amal qilish muddati tugashi bilan Mijozning bank hisobvarag'iga ko'rsatilgan xizmatlar uchun ushbu shartnomaning 5.1.-bandida qayd etilgan tartibda haq undiriladi.

5.3. Mazkur shartnoma bo'yicha xizmat haqi, xizmatlar ko'rsatilgan kunning o'zida Fuqarolik kodeksining 780 va 783-moddalariga asosan Bank tomonidan memorial order yoki to'lov talabnomasi orqali Mijozning topshirig'isiz (akseptsiz tartibda) hisobdan chiqariladi. Hisobdan chiqarilgan mablag'lar to'g'risida Mijoz, mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan, masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari yoki Bank hisobvarag'idan ko'chirma taqdim etish orqali xabardor qilinadi.

5.4. Bank tomonidan Mijozga uning hisobvarag'ini yuritish bo'yicha ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa xizmatlar ko'rsatilganda, Mijoz Bankka "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida ko'rsatiladigan bank xizmatlari uchun Tariflar" (keyingi o'rinlarda "Tariflar")ga asosan haq to'laydi. Bunday holatda xizmat haqi mazkur shartnomada belgilangan tartibda undiriladi.

5.5. Bank tariflariga o'zgartirishlar kiritilgan takdirda, bunday o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 kun oldin Bankning rasmiy saytida (www.sqb.uz) e'lon qilish orqali xabardor qilinadi. Bank Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlarni masofaviy xizmatlarni ko'rsatish dasturlari, mijozlarning mas'ul xodimlariga SMS xabarlar yuborish, amaliyot zallaridagi tegishli e'lonlar peshtaxtasida osib qo'yish yohud mijozning bank hujjatlarini olishga mas'ul xodimini yozma ravishda tanishtirish orqali xabardor qilinishi mumkin.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida boshqa tomonga yetkazilgan zararni to'laydi hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.2. Bankning javobgarligi:

6.2.1. Mijoz hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga;

6.2.2. Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini noqonuniy ravishda oshkor qilganligiga;

6.2.3. Bank tomonidan to'lovlarni amalga oshirish muddatlari buzilgan taqdirda, muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.2.4. Bank Mijozning shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli ravishda bajarmaganligi uchun uning kreditorlarga to'lashi lozim bo'lgan penyaning hisoblanishiga va undirilishiga javobgar bo'lmaydi.

6.3. Mijozning javobgarligi:

6.3.1. Ushbu shartnomada belgilangan xizmat haqi xisobvaraqda pul mablag'lari bo'lmagan yoki yetarli bo'lmaganligi yoki boshqa sabablarga ko'ra Mijoz tomonidan to'lanmaganda, Mijoz Bankka kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan xizmat haqi summasining 0,05 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan xizmat haqi summasining 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

Mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligi uchun javobgardir.

6.3.2. Mijoz bank kassasidan olingan naqd pul mablag'larini o'z vaqtida kassasiga kirim qilish va belgilangan maqsadlar uchun sarflashi hamda kassa intizomiga rioya etilishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.3.3. Mijoz bankka mazkur shartnomaga asosan taqdim etgan yoki taqdim etadigan hujjatlarning to'g'riligi va haqqoniyligiga javobgar hisoblanadi.

7. BANKNI BELGILANGAN JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH HOLATLARI

7.1. Bank qo'yidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi:

- a) banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;
- b) Mijoz tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganida;
- v) Qonunlarda belgilangan tartibda Bank yoki Mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda;
- g) elektr-energiyasi bo'lmagan hollarda yoki boshqa fors-major vaziyatlarda.

8. ALOHIDA SHARTLAR

8.1. Mijoz bankdagi hisobvaraqda turgan o'z pul mablag'larini mustaqil tasarruf etadi. Bank Mijozning pul mablag'laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda uning pul mablag'larini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqlariga qonunda va mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni belgilashga haqli emas.

8.2. Mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar qoldiqlariga foiz hisoblanmaydi.

8.3. Mazkur shartnoma shartlari Mijozga keyinchalik Bankning ushbu tarmog'ida milliy valyutada ochiladigan ikkilamchi hisobvaraqlarga nisbatan ham tadbiq etiladi.

9. FORS-MAJOR HOLATLARI

9.1. Shartnoma tuzilganidan so'ng, bir tomon ikkinchi tomon oldida ularning ixtiyori va xohishidan tashqari, oldindan ko'rib bo'lmaydigan va oldini olib bo'lmaydigan, jumladan, suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlar natijasida kelib chiqqan vaziyatlarda mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

10. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

10.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to'liq ta'qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

10.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmashliklarini kafolatlaydi.

10.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart. Yozma xabarnomalar "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens ishonch liniyasi" kanallari (**tel:0-800-120-8888, veb sayt www.sqb.uz, Telegram messenjer SQB AntiKor (@sqbantikor_bot)**) orqali amalga oshiriladi.

10.4. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

10.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

11. SANKSIYALAR BILAN BOG'LIQ XATARLARNI BOSHQARISH BO'YICHA SHARTLARI

11.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar ularning har biri o'z faoliyatida iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishini va ularni qo'llab-quvvatlashini tan oladi va tasdiqlaydi.

11.2. Mijozning hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larni kiritish yoki mijoz topshirig'iga asosan hisobvarag'idan o'tkazishda Bank tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar to'g'risidagi xalqaro qonun hujjatlariga rioya etilishiga qaratilgan tegishli choralar ko'rish (tekshirish va o'rganish) talab etilsa, Bank mazkur amaliyotni zarur bo'lgan davrga to'xtatib qo'yishga haqli.

11.3. Bank - mijoz va uning kontragenti bilan tuzilgan bitim bo'yicha har qanday ma'lumot yoki hujjatlarni (*kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar, uning to'liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari*

ro'yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro organi, mansabdor shaxslari, xodimlari, yuk to'g'risida, jo'natish hujjatlari, mahsulotning spesifikatsiyasi, tashuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa zarur ma'lumotlar) ushbu bitimning iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli;

11.4 Eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag'larni mijoz hisobvarag'iga kirim qilinishi, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag'larini chiqim qilishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko'rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlariga, eksport/import qilinayotgan tovarlar/xizmatlarga nisbatan sanksiyalar mavjudligi aniqlanganda, Bank ushbu operatsiyani amalga oshirishni bir tomonlama rad etishga haqli.

11.5. Agar mijoz tomonidan taqdim etilgan tashqi savdo shartnomalarida rejalashtirilgan amaliyotlarning sanksiyaviy xatari Bank tomonidan yuqori deb topilsa, Bank ushbu amaliyotni amalga oshirayotgan mijozdan xalqaro e'tirof etilgan va reytingga ega bo'lgan yuridik kompaniyadan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa talab qilishga haqli. Ushbu huquqiy xulosa Bank uchun amaliyotni bajarish uchun majburiy hisoblanmaydi. Bank mazkur amaliyotni o'tkazishda mustaqil hisoblanadi.

Mijoz tomonidan yuridik xulosani olishda qilingan harajatlar Bank tomonidan qoplanmaydi.

11.6. Mijoz faoliyati sanksiya bo'yicha xalqaro qonunchilikka nomuvofiq bo'lgan taqdirda yoki Bank tomonidan mijozning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish rad etilgan hollarda, Bank 5 (besh) ish kuni ichida Mijozni qoidalar buzilganligini tasdiqlovchi faktlarni/materiallarni ilova qilgan holda yozma ravishdagi xabarnomani quyidagi pochta manziliga yuboradi:

Bank: _____

Mijoz: _____

11.7. Mijoz ushbu shartlarning 1.6-bandiga asosan yozma xabarnomada qayd etilgan qoidalarini buzilganlik faktlarini/materiallarini rad etuvchi asoslari mavjud bo'lsa, bu haqida Bankni xabarnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ularni Bankka taqdim etishga haqli.

11.8. Mijoz o'z faoliyatini amalga oshirishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko'rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari/muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari sanksiyalar ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

11.9. Mijoz eksport qilish hisobidan kelib tushgan mablag'lar bo'yicha tovar va xizmatlarga, shuningdek import qilish hisobidan pul mablag'larini jo'natishda tovar va xizmatlar sanksiyaga tushgan tovarlar ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

12.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va u nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

12.2. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar hamdan uni bekor qilish tomonlar o'rtasida yozma ravishda kelishuv imzolash orqali amalga oshiriladi.

12.3. Mazkur shartnoma Mijozning arizasiga ko'ra xohlagan vaqtda, ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun barcha to'lovlar Mijoz tomonidan to'liq amalga oshirilgandan so'ng, o'rnatilgan tartibda bekor qilinishi mumkin.

12.4. Ushbu shartnoma Bankning talabi bilan sudning qaroriga binoan ikkinchi taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan yohud qonunchilikda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

12.5. Mijozning asosiy hisobvarag'i, ushbu Mijozga tegishli boshqa hisobvaraqlar yopilgandan keyingina yopiladi (asosiy hisobvaraqlarni boshqa bankka o'tkazish hollari bundan mustasno).

13. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

13.1. Ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.

13.2. Agar kelib chiqqan nizo va kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal etib bo'lmasa, ular amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.

13.3. Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblari bo'yicha o'zaro e'tiroz va nizo (da'vo)lari qonunchilikda belgilangan tartibda Bank ishtirokisiz hal etiladi.

14 . SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

14.1. Bank va Mijoz o'rtasidagi mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadi.

14.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi. Shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Mijozda saqlanadi.

15. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA

BANK REKVIZITLARI

BANK	MIJUZ
Manzil:	Manzil:
Bank rekvizitlari: Bank kodi : 09003	Bank rekvizitlari Bank kodi
STIR:	STIR:
H/v:	X/r
Tel:	Tel :
 <i>(BXO/BXM rahbari, F.I.Sh., imzo)</i> <i>(Katta nazoratchi (yoki Nazoratchi), F.I.Sh., imzo)</i> M.O'. «__» _____ 20__ y.	 <i>(F.I.Sh., imzosi)</i> <i>(Bosh hisobchi mavjud bo'lganda)</i> M.O'. <i>(mavjud bo'lganda)</i> «__» _____ 20__ y.